O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI

NURALIYEVA ZULFIYA ALISHEROVNA

BOLALAR HUQUQLARINING OILAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK:347(043.5)(575.1)

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Nuraliyeva Zulfiya Alisherovna
Bolalar huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlarini takomillashtirish.....3

Nuraliev Zulfiya Alisherovna
Improving family and legal guarantees of children's rights.....24

Нуралиев Зулфия Алишеровна
Совершенствование семейно-правовых гарантий прав детей……..43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……45

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI

NURALIYEVA ZULFIYA ALISHEROVNA

BOLALAR HUQUQLARINING OILAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu937 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) «ZiyoNet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samarxodjayev Batir Bilyalovich** yuridik fanlar nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Baratov Mirodil Xomudjonovich** yuridik fanlar doktori (DSc), professor
	Djoldasova Saxibjamol Djalgasovna yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Sudyalar Oliy maktabi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD/37/27.02.2020.YU.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «28» iyun soat 10:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89, faks: (99855) 501-01-89; e-mail: tm_devon@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘hatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Intizor ko‘chasi, 68-uy. Tel.: (99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «____» _____ _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I.Nasriyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

D.Artikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.F.Imomov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar rais muovini, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bola huquqlarining qonunchilik kafolatlarini belgilashga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki, inson huquqlari bola huquqlaridan boshlanadi va bolalar huquqlarini kafolatlash orqali har bir davlat o‘z kelajagini ta’minlaydi. Hozirgi kunga kelib dunyo aholisining 8 milliarddan oshiqroq bo‘lib, shundan 34% ni 14 yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar tashkil qiladi va 2023-yil yanvar oyi holatida 447 586 ta bola tug‘ilgan[1]. Shunday ekan bola huquqlarini yetarli darajada kafolatlash, ularning oilaviy huquqlarini ta’minlash hamda realizatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilash dolzarb tusga ega hisoblanadi. Zero, bola huquqlarning kafolatlanganligi ularning tarbiyasi va rivojlanishi uchun asosiy mezon sanaladi. Bugungi globallashuv sharoitida hamda virtual olamning sezilarli darajada bolalar hayotiga kirib kelishi munosabati bilan bolalar huquqlarining kafolatlari masalasidagi muammoli jihatlar ko‘zga tashlanmoqda. Shu bois bola huquqlarining bugungi chaqiriq va xavflarga qarshi tura oladigan, bolalarning tarbiyasi va kamolotini ta’minlashga munosib hissa qo‘shadigan kafolatlar tizimini yaratish dolzarbdir.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida bola huquqlarini kafolatlashning muayyan tizimlari yaratilgan. Xususan, Fransiyada bolalarning oilaviy huquqlarini kafolatlash maqsadida ikkita vositaga ya’ni, profilaktika hamda himoyaga tayanilsa, Buyuk Britaniyada “foster tarbiyachi”lik insituti amal qiladi, Germaniyada bola huquqlarini buzish yoki to‘sqinlik qilishga nisbatan qat’iy jazo choralari tizimi qo‘llanilsa, AQSHda bolaning o‘z huquqlarini himoya qilishi uchun keng imkoniyatlar belgilangan[2]. Bu esa o‘z navbatida, bola huquqlarining qonunchilik darajasidagi kafolatlarining haqiqatda ishlaydigan tizimi, mexanizmi va usullarini ishlab chiqilishini taqozo etadi. Ayni paytda bu davlatlarda bola huquqlarining kafolatlari tizimida Internet orqali muammoli bolalarni aniqlash, ularning oilaviy-huquqiy kafolatlari bo‘yicha muayyan tarmoqlarni yaratish hamda ota-onalar bilan tezkorlikda muloqot qilish kabi vositalar faol qo‘llanilmoqda. Shuning barobarida xorijiy mamlakatlari sivilistikasida bola huquqlarining kiber makonda ta’minlashga oid qoidalarni yaratish, bunda bola huquqlariga rioya qilmagan yoki ularni buzayotgan shaxslarga nisbatan amalda ishlaydigan ta’sir choralari tizimini yaratishning qonunchilik asoslarini yaratish borasida tadqiqotlar amalga oshirilishiga e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda bola huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlari qonunchilik darajasida mustahkamlangan. Bunday bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z fikrini ifoda etish, ota-ona va qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqlari hamda bir qator mulkiy huquqlarining kafolatlari normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan. Shunga qaramasdan bola huquqlarining amalga oshirish, ularni qo‘llash, himoya qilish, kafolatlarning ta’minlanishi masalalari bir qator ilmiy-nazariy va amaliy muammolar mavjud. Bular jumlasiga ota-onasi ajrashganida bolaning

[1] https://countrymeters.info/ru/World

[2] https://www.interesnie-fakty.ru/nauka/obrazovanie/o-pravah-rebenka-v-raznyh-stranah/

yashash joyi va ota-onasidan qaysi biri bilan qolishini aniqlash, bolaning fikrini inobatga olinishi, ota-onalik huquqidan mahrum etilganida bola huquqlarining kafolatlanishi, ota-onasi tomonidan boshqa shaxs qaramog‘iga vaqtincha qoldirib ketilgan bolalarning huquqlarining ta’minlashi kabi masalalar qonunchilik darajasida hal qilinmog‘i zarur.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi Fuqarolik kodeksi, 2018 yil 22 yanvardagi Fuqarolik protsessual kodeksi, 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2014-yil 2-yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 29-maydagi PQ-4736-son, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son, “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-iyundagi PF–6012-son farmonlari, “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi PQ–4996-son Qarori va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bola huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlarining ayrim jihatlari ayrim milliy mualliflarning asarlarida yoritilgan. Xususan, F.M.Otaxo‘jayev, M.X.Samarxodjayeva, U.Sh.Shoraxmetova, Z.N.Esanova, Sh.R.Yuldasheva, I.B.Djurayeva, G.Inomjanova. R.Matkurbanov, N.Ashurova[3] va boshqa huquqshunos olimlarning asarlarida bolaning huquqlari masalalari u yoki bu darajada yoritilgan. Biroq olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida bola huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlari bilan bog‘liq muammolar alohida tadqiq etilmagani ko‘rinadi.

Xorijiy mamlakatlarda L.Trinder, Caplan B. Locke, Laura Stovel va Marta Valiñas, U.Kilkelly, C.Geuzaine, M.Debry, V.Liesens[4] va boshqalar tomonidan bola huquqlari va ularni amalga oshirish hamda himoya qilish masalalari tahlil qilingan.

MDH davlatlari olimlaridan: V.I.Abramov, Yu.F.Bespalov, T.V.Lobanova, N.A.Temnikova, L.V. Krasitskaya, V.P.Mironenko, M.V.Geller, V.D.Kravchuk, Ye.N.Dushkina, S.A.Sorokin[5] kabi olimlar tomonidan bola huquqlarining oilaviy-huquqiy masalalari yoritilgan.

[3] Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan keltirilgan
[4] Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan keltirilgan
[5] Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan keltirilgan

Garchi tadqiqot mavzusi doirasida muayyan ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lsa-da, bugungi kunda O‘zbekistonning rivojlanish sharoitida fuqarolik qonunchiligi, huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan bola huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlari masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sudyalar oliy maktabining “Bolalar huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlarni ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ustuvor yo‘nalishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bolalar huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolalar huquqlariga nisbatan oila qonunchiligining umumiy tavsifini amalga oshirish;

oila huquqining subyekti sifatida bolalar huquqlarining asosiy kafolatlarini tahlil qilish;

bolalar huquqlariga oid oilaviy-huquqiy kafolatlariga oid qonunchilikning rivojlanish genezisini tadqiq qilish;

zamonaviy voqe’liklar negizida bolalar nasl-nasabi belgilashning huquqiy masalalarini yoritish

voyaga yetmagan bolalar shaxsiy nomulkiy huquqlarining kafolatlarini asoslash;

oilada bolalarning mulkiy huquqlari kafolatlarini amalga oshirish muammolari va ularning yechimlarini taklif qilish;

xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga ko‘ra oilada bolalar huquqlarining kafolatlariga nisbatan yondashuvlarni tahlil qilish

oilada bolalar huquqlari kafolatlarini himoya qilishni tadqiq qilish;

oilaviy-huquqiy munosabatlarda bolalar huquqlari kafolatlariga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollariga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti bolalar huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlariga oid fuqaroviy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bolalar huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlariga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, taqqoslash-qiyoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, aniq sotsiologik, statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

FHDYO organi tomonidan otalikni belgilash rad etilganda, o‘z otaligini tan olgan shaxs ma’muriy sudga shikoyat berishi mumkinligi va bu esa o‘z navbatida

bolaning nasl-nasabini belgilash bo‘lgan huquqini himoya qilish mexanizmini kuchaytirishi asoslantirilgan;

farzandlikka oluvchilar bo‘la olmaydigan shaxslar jumlasiga oilaga va yoshlarga qarshi jinoyat sodir etganlar kirishi va bu o‘z navbatida bolalar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning muhim omili ekanligi asoslangan;

bola huquqlarini himoya qilishda aniq terminlarni ishlab chiqish va ularni to‘g‘ri talqin etish zaruratidan kelib chiqib “nogironligi bo‘lgan bolalar (bola); terminining ta’rifi ishlab chiqilib qonunchilik darajasida belgilanishi asoslantirilgan;

yordamga muhtoj bo‘lgan sobiq xotin (er) agar o‘rtadagi nogironligi bo‘lgan bolani 18 yoshgacha parvarishlashni amalga oshirgan bo‘lsa sud tartibida aliment talab qilish huquqiga ega ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolaning oilaviy-huquqiy kafolatlari sifatida sud protsessida bolaning fikrini ifodalashni amalga oshirish mexanizmi sifatida muayyan soha mutaxassislari ishtirokida uning fikrini so‘rash zarurligi, bunday bolaning fikrini so‘rashda yosh senzini qayta ko‘rib chiqish zarurligi ilgari surilgan;

bolaning oilaviy munosabatlardagi ishtirokiga nisbatan belgilangan qoidalar, ota-onaning o‘z bolasiga nisbatan huquqlari va vakolatlarini suiiste’mol qilishi, ayniqsa qarindoshlar yoki tanishlarga vaqtincha qoldirib ketilgan bolaning huquqlarini himoya qilishda mahalla va vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari doirasini kengaytirishga oid taklifi ishlab chiqilgan;

zamonaviy huquqiy voqe’liklar, xususan, surrogat onalik negizida bolaning nasl-nasabini belgilash, turli huquq tizimlarida farzandlikka olishning huquqiy jihatlarining ta’siri hamda milliy qonunchilikda farzandlikka olishni takomillashtirishga oid takliflari ilgari surilgan;

bolaning nikohda tug‘ilganligi yoki nikohda tug‘ilmaganligidan qat’iy nazar ularning tengligini belgilash fikri ilgari ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni umumlashtirib, olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, fuqarolik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o‘zgartish va

qo‘shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta’lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o‘qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

FHDYO organi otalikni belgilash rad etganda, o‘z otaligini tan olgan shaxs tomonidan ma’muriy sudga shikoyat berilishi mumkinligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining fuqarolik ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 5-sonli qarori 2-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 13-sentyabrdagi 11-14-23-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif otalikni belgilash tizimini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar farzandlikka oluvchi bo‘lishlari mumkin emasligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining fuqarolik ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 13-bandining ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 13-sentyabrdagi 11-14-23-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif farzandlikka oluvchilar doirasini qat’iy belgilashga zamin yaratgan;

nogironligi bo‘lgan bolalar(bola) tushunchasiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-770-son Qonunining 23-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Senatining 2023-yil 19-sentyabrdagi 28-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif nogironligi bo‘lgan bolaning huquqiy maqomini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

o‘rtadagi nogironligi bo‘lgan bolani u o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar parvarishlashni yoki bolalikdan I guruh nogironligi bo‘lgan o‘rtadagi bolani parvarishlashni amalga oshirgan er yoki xotin aliment olish huquqiga ega ekanligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-770-son Qonunining 17-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Senatining 2023-yil 19-sentyabrdagi 28-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif nogironligi bo‘lgan bolani parvarishlayotgan er yoki xotinning aliment olish huquqini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta ilmiy maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 188 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning natijalarini amaliyotda joriy etilish holati, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Oila qonunchiligi bo'yicha bolalar huquqlari kafolatlari mohiyatining ilmiy-nazariy tahlili"** deb nomlangan bo'lib, unda bolalarning maqomi va ularning huquqlariga nisbatan oila qonunchiligining umumiy tavsifi, oila huquqining subyekti sifatida bolalar huquqlarining asosiy kafolatlari, bolalar huquqlariga oid oilaviy-huquqiy kafolatlariga oid qonunchilikning rivojlanish genezisi kabi masalalar yoritilgan.

"Inson huquqlari bola huquqlaridan boshlanadi" - bu falsafiy shior bo'lib, uning zamirida huquqiy demokratik davlat va undagi huquq ustuvorligini ta'minlovchi organlar o'z faoliyatini amalga oshiradi. Biroq, bolalar huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlardan tashqari, muayyan majburiyatlarga ham ega. Bolalarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari muhimligini hisobga olgan holda, bolaning huquqiy holatini aniqlashga yondashuvlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, shuningdek, bolaning huquqiy maqomi elementlarining mazmunini tahlil qilish va ochib berishni talab etiladi.

Dissertatsiyada bolalarning huquqiy maqomiga oid huquqshunos olimlar (N.M.Onishenko, O.F.Skakun, Z.V.Romovskaya)ning fikrlari tahlil qilinib, huquqiy maqom murakkab va ko'p o'lchovli kategoriya bo'lib, u izchillik, murakkablik, universallik bilan ajralib turadi va huquq subyektliligi, huquqlar, erkinliklar va majburiyatlar kabi elementlardan iborat ekanligi ta'kidlanadi. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun normalari tadqiq qilish asnosida bola huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyati sifatida uning dinamik tusi (shaxslar bolaning huquq va majburiyatlarini tug'ilishi bilan oladi va bunday shaxs voyaga yetganida bolalik to'xtaydi, lekin bolalik davrida huquq va majburiyatlar doirasi o'zgarib turadi) asoslantiraladi.

Bolaning huquqiy maqomini tavsiflovchi huquqlar doirasi va ularning mazmuni borasidagi olimlar (R.J.Matkurbanov, Yu.F.Bespalov, V.P.Mironenko, N.M.Kononchuk)ning fikrlari o'rganilib, bolaning oilaviy huquqlari - bu bola

tug‘ilishidan yoki qonun hujjatlarida belgilangan paytdan boshlab shaxs o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar tegishli bo‘lgan huquqlar bo‘lib, ular oilaviy tarbiya va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini ta’minlashga qaratiladi, degan xulosaga kelinadi.

Xususiy-huquqiy munosabatlar doirasida shaxsning o‘z harakatlari bilan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish, ularni amalga oshirish, shuningdek shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati nafaqat ma’lum bir yoshga yetish bilan, balki uning sog‘lig‘i, mulkiy holati bilan ham bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bolalikni himoya qiladi, kelib chiqishidan, shuningdek, ular nikohda yoki undan tashqarida tug‘ilganligidan qat’i nazar bolalarning huquqlarida tengligini kafolatlaydi, bolagan nisbatan har qanday zo‘ravonlikni va uning ekspluatatsiya qilishni taqiqlaydi.

Dissertatsiyada qonunchilik qoidalarini ham, ilmiy tadqiqotlarni ham tizimli tahlil qilish asosida, FKda “bola” tushunchasi nafaqat oila qonunchiligiga xos bo‘lgan psixofiziologik (yosh) va ijtimoiy jihatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilangan, balki jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan huquq va majburiyatlarning xususiyatlari ham hisobga olingan degan xulosaga kelinadi. Bola tashuvchisi bo‘lgan huquq va majburiyatlar doirasini, shuningdek, javobgarlik choralarini aniqlashga tabaqalashtirilgan yondashuv bola ishtirokchisi bo‘lgan fuqarolik huquqiy munosabatlarining o‘ziga xos turiga bog‘liq. Fuqarolik huquqida homila holidagi, ammo tug‘ilmagan bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinadi, biroq tug‘ilishdan oldin qonun homila holidagi bolani subyekti sifatida tan olinmaydi. Amalga oshirilgan tahlillar asosida OKni “Bola” deb nomlanadigan 4^2-modda bilan to‘ldirish taklifi ishlab chiqiladi.

Dissertatsiyada “ota-onalar o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni rad etishlari mumkinligi” masalasi e’tibor qaratilib, bolaning rad etilishi qonuniy bo‘lgan holatlarni qonunchilik darajasida aniq belgilash lozimligi ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlilidan kelib chiqib asoslantiriladi.

Bola huquqlarining rivojlanishi o‘zining tarixiy ildizlariga ega, chunki har bir jamiyat o‘zining rivojlanib borishi bilan bolalar huquqlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratgan. Sivilizatsiya rivojlanishi bilan sodir bo‘lgan ijtimoiy jarayonlar bolaning jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirdi va ularga nisbatan davlat va jamiyatning munosabati ijobiy tomonga o‘zgarib borishini ta’minladi.

Dinining tarqalishi bolaning jamiyatdagi mavqeiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, bu juda ijobiy edi, chunki din bolada ruhning borligini tan oldi. Bu bolaning jamiyatdagi mavqeini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ruhi bor jonzotni diniy me’yorlarga ko‘ra o‘ldirish taqiqlangan. Bolani o‘ldirish jinoyat deb hisoblangan, uning hayoti qonun bilan himoyalangan. Ammo dinning tarqalishi bilan birga nikohsiz tug‘ilgan bolalarning huquqiy maqomi yomonlashdi.

Tadqiqot ishida avestodagi bola huquqlariga oid qoidalar qoidalart va qarashlar tahlil qilinib, bolalarning huquq va manfaatlari avvalo, ularning ota-onalari, qarindoshlar hamda tegishli qabila tomonidan ta’minlanganligi bu esa bolalarning tarbiyasi va rivojlanishi uchun ijobiy ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi.

Islom huquqi bo‘yicha homila holatidagi bolaning huquqlari va bolaga nisbatan ota-onaning majburiyatlari masalalari dissertatsiyada tahlil qilingan. Ishda keltirilishcha, musulmonning farzandi tug‘ilganidan musulmon bo‘ladi va shu dinda tarbiyalanish huquqiga ega. Bundan tashqari, yangi tug‘ilgan musulmon yaxshi ism olish huquqiga ega, xususan, musulmoncha ism. Chaqaloq tug‘ilgandan ko‘p o‘tmay, ota-onalardan biri bolaning qulog‘iga ibodat so‘zlarini pichirlashi kerak. Tug‘ilgandan keyingi yettinchi kuni qo‘y yoki echki qurbon qilinishi kerak, uning go‘shti qarindoshlar va kambag‘allarga bo‘linishi kerak. Emizish – bu yangi tug‘ilgan chaqaloqning yana bir huquqi, bu chaqaloqning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish uchun zarur shartdir, shuningdek, ozuqa moddalari bilan birga uni infeksiyadan himoya qiladi. Bu borada Qur’oni karimda shunday oyatlar keltiriladi: “Onalar bolalarini to‘liq ikki yil emizadilar. (Bu hukm) emizishni benuqson qilmoqchi bo‘lgan kishilar uchundir. Ularni (ya’ni onalarni) yaxshilik bilan yedirib-kiydirish otaning zimmasidadir”.

Islom bolaning asosiy manfaatlarini himoya qiladi, oilani unga sevgi, e’tibor va xavfsizlikni ta’minlaydigan tabiiy muhit sifatida himoya qiladi. Ota-onalarga bolaning jismoniy va axloqiy ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirishga ruxsat berilmaydi. Ikkala ota-ona ham bolaning eng yaxshi tarbiyasi uchun javobgardir, u uchun yaxshi xulq-atvor namunasi hisoblanadi. Bolalar ota-onalari tomonidan teng munosabatda bo‘lish huquqiga ega. Rashkdan qochish uchun bitta bola ota-onadan opa-singillari va akalaridan ko‘ra ko‘proq afzallik va e’tibor olmasligi kerak, chunki Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning quyidagi so‘zlariga amal qilish lozim: “Allohdan qo‘rqinglar va bolalaringizni tenglik va adolatli tarbiya qilingizlar”.

Dissertatsiyada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil noyabrda imzolangan, 1990-yilda kuchga kirgan va dunyoning aksariyat davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjat - bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni normalari tahili qilinadi.

“Oila huquqining turli institutlarida bolalar huquqlari kafolatlarining ifodalanishi muammolari” – deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida zamonaviy voqe’liklar negizida bolalar nasl-nasabi belgilashning huquqiy masalalari, voyaga yetmagan bolalar shaxsiy nomulkiy huquqlarining kafolatlari, oilada bolalarning mulkiy huquqlari kafolatlarini amalga oshirish kabi masalalar tadqiq qilingan.

Har bir bolaning mavjudligi fakti rasman tan olinishi kerak. Ismga va fuqarolikkka bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi bolaga o‘z huquqlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Bolaning tug‘ilishi ro‘yxatga olinganidan keyin davlat bolaning mavjudligini rasman tan oladi, bundan tashqari, ro‘yxatga olish asosida bolaning kelib chiqishi, ya’ni nasl-nasabi va ota-onasi (onasi va otasi) bilan qarindoshligi o‘rnatiladi.

Dissertatsiyada bolaga nisbatan otalikni belgilashga oid xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Buyukbritaniya, AQSH, Niderlandiya, Indoneziya, Hindiston, Tunis, Eron, Livan, Falastin) qonunchiligi tahlil qilinib, bola huquqlari qonunchilik

darajasida davlat tomonidan kafolatlanligini ta’kidlanadi. Shuningdek, ishda bolaning nasl-nasabini belgilashda “surrogat onalik”ning huquqiy maqomini belgilashga oid Ukraina qonunchiligi o‘rganilib, farzandli bo‘lish borasida qonuniy nikohdagi er-xotinning yordamchi reproduktiv vositalaridan foydalanishi hamda bu masalada boshqa ayol bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi o‘zaro rozilik bilan amalga oshirilishidan kelib chiqib, bolaning ota-onasi yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanishga rozilik bildirgan er-xotin bo‘lishini ko‘rsatishi, bunda surrogat onaning roziligi taraflar o‘rtasida tuzilgan surrogat onalik shartnomasida belgilanishi asoslantirildi.

Tadqiqotda bolaning shaxsiy nomulkiy huquqlari kafolatlari borasida huquqshunos olimlar (H.Rahmonqulov, I.I.Nasriyev, I.B.Yakubova)ning fikrlari tahlil qilinib, bolaning quyidagi shaxsiy nomulkiy huquqlari tadqiq qilingan: bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqi; bolaning himoyaga bo‘lgan huquqi; bolaning o‘z fikrini ifoda etish huquqi; bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi; bolaning ismi va familiyasini o‘zgartirish huquqi.

Muallifning fikricha, jismoniy shaxsning “yashash huquqi” konstitutsiyaviy normalarda belgilangan bo‘lib, ushbu huquq egasi bo‘lgan fuqaroning mazkur huquq (yashash huquqi)ni realizatsiya qilish chegaralari, shartlari va asoslari fuqarolik qonunchiligida ifodalanishi o‘rinlidir. Bunda jismoniy shaxsning “yashashga bo‘lgan huquqi” haqidagi qoidalar FKda o‘z ifodasini topishi lozim.

Voyaga yetmagan bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqiga oid bir qator mualliflar (Yu.F.Bespalov, S.V.Bukshina, M.V.Geller)ning fikrlari o‘rganilib, bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi bevosita bolaning o‘z ota-onasi bilan birga yashash, ota-onasining qaramog‘i va g‘amxo‘rligida tarbiyalanish vakolatini anglatishi keltiriladi. Bolalarning huquqlarini himoya qilish muayyan vositalar va huquqiy mexanizmlarga asoslanadi. Bunda ota-onalar, ularning o‘rnini bosuvchi qonuniy vakillar hamda vakolatli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan bola huquqlari buzilganda zudlik bilan tegishli choralar ko‘rilishi, qonunchilikda belgilangan tartibda bola huquqlarini himoya qilishning yuridik va amaliy usullari qo‘llanilishi lozim bo‘ladi.

Bolaga ism tanlash yoki uning familiyasini aniqlashdagi kelishmovchiliklarni vasiylik va homiylik organi emas, balki sud qarori bilan hal etilishi maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan OKning 69-moddasi uchinchi qismida nizo sud tomonidan hal etilishi haqidagi qoidani kiritish lozim. Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagilar bolaga ism sifatida ishlatilmasligini taklif qilingan: 1) raqamli belgilar; 2) formulalar, kimyoviy, fizik, matematik belgilar; 3) qisqartmalar; 4) axloqsiz so‘zlar, haqoratli so‘zlar va iboralar (masalan, ahmoq, galvars va boshqalar.); 5) sifatlar (masalan, chiroyli, dahshatli va hokazo.), fe’llar; 6) jug‘rofiy nomlar; 7) hayvonlar, o‘simliklar, zamburug‘lar va viruslarning nomlari (asosiy qirolliklarning ilmiy tasnifiga ko‘ra); 8) unvonlar, martabalar, darajalar; 9) yuqoridagi elementlarning kombinatsiyasi.

Voyaga yetmagan bolalar ham muayyan mulkiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Oilada voyaga yetmagan bolalarning mol-mulki ota-onalarning mol-mulkidan

alohida hisoblanadi hamda ota-onalar o‘z bolalarning mol-mulki mulkdori sanalamaydilar. Shunday bo‘lsada ota-onalar bolalarning qonuniy vakili sifatida ushbu mol-mulkka nisbatan mulkdor vakolatini amalga oshiradilar. Biroq bunda qonunchilik bolalarning mol-mulkini tasarruf etish ularning huquq va manfaatlariga zid ravishda amalga oshirilmasligi talabini nazarda tutadi.

Dissertatsiyada OKning 13-bobi voyaga yetmaganlarning oilaga mansubligi va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan quyidagi huquqlari tahlil qilinadi: 1) ta’minoit uchun; 2) daromad va meros uchun; 3) ota-onalar mol-mulki uchun (ular bilan birga yashayotgan bo‘lsa); 4) uning mol-mulkini tasarruf etishda qonunga rioya etilishini talab qilish.

Uy-joy sohasida bola huquqlari eng kam himoyalangan. Agar nikoh tugatilganidan keyin bola ota-onasi bilan boshqa uyda yashasa, bola ota-onalardan biriga tegishli yashash maydonidan foydalanish huquqini saqlab qolishi kafolatlanmaydi.

Muallifning fikricha, voyaga yetmaganning fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatidagi irodasini uning huquq subyektliligining o‘ziga xos xususiyatlari sababli hisobga olish mumkin emas. Faqat qonuniy vakil tomonidan tuzilgan tasarruf etuvchi bitimning voyaga yetmagan mulkdorning mulkiy manfaatlariga muvofiqligi mol-mulkni uning qonuniy vakilidan haq evaziga insofli sotib olgan taqdirda, bunday mulkdorning mulkidan mulkni tasarruf etish uchun asoslarni baholash mezoni bo‘lishi kerak.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Oilada bolalar huquqlariga oid xorijiy mamlakatlar tajribasi va bolalar huquqlarining kafolatlariga oid qonunchilikni takomillashtirish”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga ko‘ra oilada bolalar huquqlarining kafolatlariga nisbatan yondashuvlar tahlili, oilada bolalar huquqlari kafolatlarini himoya qilish muammolari, oilaviy-huquqiy munosabatlarda bolalar huquqlari kafolatlariga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari kabi masalalar tahlil qilingan.

Bolalarni himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri qonunchilik bazasini takomillashtirish, xususan, xalqaro huquq normalarini hayotga tatbiq etishdan iborat. Bu boradagi ishlar samarasi sifatida bugungi kunda O‘zbekiston bola huquqlarini ta’minlash sohasida qator xalqaro hujjatlarga a’zo bo‘ldi. Bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy me’yorlarni belgilovchi asosiy hujjat bo‘lgan BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi O‘zbekiston tomonidan 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilingan. Bugungi kunda bolalar huquqlariga oid “Bolalarni boshqa mamlakatlarga o‘g‘irlab olib ketishning fuqarolik jihatlari to‘g‘risida”gi konvensiya (1980-yil); Bolalar huquqlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi (1996-yil); Ota-onalarning javobgarligi va bolalarni himoya qilish choralari bo‘yicha yurisdiksiya, qo‘llaniladigan huquq, tan olish, ijro etish va hamkorlik to‘g‘risidagi konvensiya (1996-yil); Bolalar bilan muloqot qilish to‘g‘risidagi konvensiya (2003-yil); Chet elda aliment undirish to‘g‘risidagi konvensiya (1956-yil) va Ta’minot bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi qarorlarni tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi konvensiyalar (1973-yil) mavjud. Shuningdek,

bolalar huquqlari sohasida Bolalarga nisbatan vasiylik sohasidagi qarorlarni tan olish va ijro qilish va bolalarga nisbatan vasiylikni tiklash to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi (1980-yil), Nikohdan tashqari tug‘ilgan bolalarning huquqiy maqomi to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi (1975-yil): Yevropa Kengashining Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi (2007-yil), Farzandlikka olish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi (qayta ko‘rib chiqilgan, 2008-yil) va Bolalarni himoya qilish va davlatlararo farzandlikka olish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi konvensiyalar (1993-yil) ham amal qiladi.

Dissertatsiyada bir qator xorijiy mamlakatlarning (AQSH, Germaniya, Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Kuba) bola huquqlarining kafolatlariga oid qonunchiligi tahlil qilinib, bola huquqlari inson huquqlarining bir qismi sifatida alohida kafolatlanishi lozimligi keltiriladi.

Oila huquqlarini himoya qilishning sud va suddan tashqari shakllarining mavjudligi va takomillashtirilishi zamonaviy huquqiy davlatning asosiy xususiyatlaridan biridir. Huquqni himoya qilish shaklini tanlash sudlar, ma’muriy organlar faoliyati va ularning qarorlaridan xabardor bo‘lish bilan belgilanadi.

Ishda ko‘plab huquqshunos olimlar (V.D.Kravchuk, Ye.N.Dushkina, Yu.F.Bespalov, A.M.Nechayeva, S.A.Sorokin)ning bolaning himoyaga bo‘lgan huquqiga oid fikrlarini tahlil qilib, bola huquqlarini himoya qilishda sudga murojaat qilishni takomillashtirishga oid fikrlar ilgari surilgan.

Oila qonunchiligini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u bolalarning huquq va manfaatlarini to‘liq himoya qilmaydi. Bolalar jamiyatining eng zaif qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Bolalar huquqlarini himoya qilish nomuvofiq ravishda amalga oshiriladi va qonunchilikda bo‘shliqlar mavjud. Shunday qilib, bolalarni himoya qilish milliy huquqiy tartibga solishda ularning oila va jamiyatga qaram bo‘lgan va fuqarolarning o‘ta zaif toifasiga mansubligidan kelib chiqqan holda alohida ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Dissertatsiyada “Bola huquqlarilarni kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida bolalarning qonun oldida teng huquqligiga oid qoidani kiritish zarurati asoslantirilgan. Shuningdek, “bolalar ularning ota-onalari bir-biri bilan nikohda bo‘lganligi yoki bo‘lmaganligidan qat’iy nazar ota-onalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega”ligiga oid qoidalar OKning 65^1- modda sifatida o‘z ifodasini topishi lozimligi ishda keltirilgan. Bundan tashqari, OKni “Bolalarning ota-onalariga nisbatan huquq va majburiyatlari” nomli 65^2-modda bilan to‘ldirish taklif qilingan.

OKda oila huquqlarini himoya qilish usullari borasida aniq qoidalar va normalar nazarda tutilmagan. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida OKning 11-moddasini yangi tahrirda belgilash zarurligi ishda asoslantirilgan. Shuningdek dissertatsiyada OKning 65, 80, 153-moddalariga qo‘shimcha va o‘zgartish kiritish hamda “Oilaviy munosabatlarni tartibga solishning umumiy tamoyillari” nomli 5^1-modda bilan to‘ldirish takliflari ilgari surilgan.

XULOSA

Bola huquqlarining oilaviy-huquqiy kafolatlarini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Bola huquqlarining huquqlarining kafolatlari “bolalar farovonligi prinsipi”, “ikkala ota-ona bilan muloqot qilish huquqi” “bolaning eng yaxshi manfaatdorligi prinsipi, “zo‘ravonlik va suiiste’molikdan himoya qilinish”, ota-onalarning tengligi”, “bolaning fikrini inobatga olish”, “ota-onalik majburiyatlarining taqsimlanishi” kabi prinsiplar va qoidalar orqali ta’minlanishi asoslantirildi;

2. Bolalarning nasl-nasabini belgilash oila qonunchiligidagi muhim vazifa bo‘lib, ota-onalarning huquq va majburiyatlarini belgilashda, shuningdek, bolaning manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga egaligi va bu genetik yondashuv, yuridik yondashuv, ijtimoiy-psixologik yondashuv, ko‘p o‘lchovli yondashuvdan kelib chiqishi asoslangan.

3. Bola huquqlarining kafolatlarini belgilashda ularning otasi yoki onasi, shuningdek qarindoshlari bilan ko‘rishib turishini ta’minlashning huquqiy asoslarini kuchaytirish zarurligi asoslantirilgan. Bunda muloqotni kengaytirish, ya’ni agar ota-ona yoki boshqa qarindoshlar bola bilan ko‘rishish va muloqot qilishni davom ettirishda qiyinchilikka duch kelsa, aloqa vaqtini uzaytirish yoki telefon qo‘ng‘iroqlari, vedio qo‘ng‘iroqlar yoki xatlar kabi qo‘shimcha kontaktlarni kiritish maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan.

4. Bolaning himoyaga bo‘lgan huquqini amalga oshirish va ta’minlashda himoya tizimining integratsiyalashuvi, erta ogohlantirish va ta’sir ko‘rsatish, bolada ishda ishtirok etishi va uni tinglanishi, tarmoqlararo yondashuv va hamkorlik, tabaqalashtirilgan yondashuv kabi tamoyillarni qo‘llash zarurligi asoslantirildi;

5. So‘nggi yillarda bolaning huquqiy maqomiga, xususan, uning huquqlariga qonunchilik darajasida katta e’tibor qaratilmoqda. Bu milliy qonunchilikda bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi bilan tasdiqlanishi mumkin. Xalqaro huquqiy hujjatlar darajasida konvensiyaga a’zo davlatlarning majburiyatlarini yuklash orqali bola huquqlarini yuqori darajada sifatli muhofaza qilish va himoya qilish ta’minlanadi. Fikrimizcha, bolaning oilasi va huquqiy holatini o‘rganmasdan, umuman shaxsning huquqiy holatini o‘rganish mumkin emas, chunki inson boladan, bola esa oiladan boshlanadi.

6. Amaldagi milliy qonunchilik otalikni belgilashning yuridik yondashuvidan kelib chiqadiki, bu holat bolaning haqiqiy biologik otasini aniqlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu esa milliy qonunchilikda otalikni belgilashga nisbatan nizoli vaziyatdan genetik yondashuvni tanlash zaruratini ko‘rsatadi. Chunki, otalikda belgilashdagi birlamchi omil genetik yondashuv bo‘lishi lozim. Bu o‘z navbatida haqiqatni aniqlashga ham yordam beradi. Bunda bolaning ota-onasi o‘zaro nikohda ekanligi yoki nikohdan emasligi ahamiyat kasb etmaydi. Zero, bugungi fan va texnikaning rivojlanishi, haqiqatni aniqlashda

qo‘llanilayotgan turli ilmiy ekspertizalar, xususan DNK ekspertizasi otalikni belgilashda turli ijtimoiy omillar, sabablar va dalillarni yo‘qqa chiqardi, ko‘p hollarda esa ijtimoiy omillarning noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. DNK ekspertizaning aniqlik darajasi o‘ta yuqori ekanligidan kelib chiqiladigan bo‘lsa otalikni belgilash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda uni qo‘llash har tomonlama qulay va sudda nizo keyingi tortishuvlarsiz hamda turli instansiyalarsiz hal qilishga imkon beradi. Shu sababli qonunchilik otalikni belgilashning genetik yondashuvni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

7. FKning normalariga muvofiq, shaxs voyaga yetgunga qadar oilaviy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida bolaning huquqiy maqomiga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, Kodeks bolalarning yoshini farqlashni belgilaydi: o‘n to‘rt yoshga to‘lgunga qadar kichik yoshdagi bola; o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lganlar esa voyaga yetmagan bola hisoblanadi. Fikrimizcha, bunday ta’rif oila huquqida to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanilishi turli istisnolarni yuzaga keltiradi, chunki bunda bolaning asosiy xususiyati sifatida uning ma’lum bir yoshga yetishi belgilanadi, zero fuqarolik huquqiy munosabatlarda yosh mezoni o‘z-o‘zidan yetarli emas, shaxsning o‘z harakatlarining ahamiyati tushunish va ularni boshqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

8. Qonunchilik qoidalarini ham, ilmiy tadqiqotlarni ham tizimli tahlil qilish asosida, FKda “bola” tushunchasi nafaqat oila qonunchiligiga xos bo‘lgan psixofiziologik (yosh) va ijtimoiy jihatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilangan, balki jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan huquq va majburiyatlarning xususiyatlari ham hisobga olingan degan xulosaga kelish mumkin. Bola tashuvchisi bo‘lgan huquq va majburiyatlar doirasini, shuningdek, javobgarlik choralarini aniqlashga tabaqalashtirilgan yondashuv bola ishtirokchisi bo‘lgan fuqarolik huquqiy munosabatlarining o‘ziga xos turiga bog‘liq. Fuqarolik huquqida homila holidagi, ammo tug‘ilmagan bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinadi, biroq tug‘ilishdan oldin qonun homila holidagi bolani subyekti sifatida tan olinmaydi.

